

**PAXTA TOZALASH KORXONASINING BOSH BINOSIDA JOYLASHGAN LINTER
USKUNASI VA UNING TEXNOLOGIK KO'RSATKICHLARI**

Xidirova Durdona Olim qizi

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Qudratova Nilufar Ibrohimovna

Guliston Davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10655255>

Annotatsiya. Paxta tozlash korxonalarining bosh binosida joylashgan linter uskunasining asosiy vazifasi momiq ajratib olishdan iborat. Usgbu maqola linter uskunasining asosiy vazifasi va uning texnologik ko'rsatkichlar haqida.

Kalit so'zlar: linter, kolosnik, momiq, arra, to'zitqich, 5LP, 6LP, PMP-160M linter mashinalari.

**THE LINTER EQUIPMENT LOCATED IN THE MAIN BUILDING OF THE COTTON
GINNING ENTERPRISE AND ITS TECHNOLOGICAL INDICATORS**

Abstract. The main function of linter equipment located in the main building of cotton ginning enterprises is to extract lint. This article is about the main function of linter equipment and its technological indicators.

Key words: linter, colosnik, fluff, saw, trimmer, 5LP, 6LP, PMP-160M linter machines.

**ЛИНТЕРНОЕ ОБОРУДОВАНИЕ, РАСПОЛОЖЕННОЕ В ГЛАВНОМ КОРПУСЕ
ХЛОПКООЧИСТИТЕЛЬНОГО ПРЕДПРИЯТИЯ, И ЕГО ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ
ПОКАЗАТЕЛИ**

Аннотация. Основной задачей линтерного оборудования, расположенного в главном корпусе хлопкоочистительного предприятия, является извлечение пуха. В данной статье речь пойдет об основной функции линтерного оборудования и его технологических показателях.

Ключевые слова: линтер, колосник, пух, пила, триммер, линтерные машины 5ЛП, 6ЛП, ПМП-160М.

Paxta tozalash korxonalarida chigitdan momiq ajratish linterlarda bir necha karrali va turli tezkorlikda amalga oshiriladi.

U yoki bu turdagi momiq olinishining zarurligiga qarab quyidagi texnologiyalar qo'llanilishi mumkin:

Ikki marta, birinchisida kuchaytirilgan linterlash yo'li bilan, ikki marta, ikkinchisida kuchaytirilgan linterlash yo'li bilan.

Bu maqsadlar uchun UMPL kamerali PMP-160M, 5LP rusumli va 6LP rusumli linter agregatlari qo'llanilib, ularning hammasida arra tishidan momiq xavo yordamida ajratilib olinadi.

Linterlarda momiq ajratish usuli arralarni aylanib turgan chigit valigiga mexanik usulda tasir etib, chigitlar yuzasida momiq qirib olishiga, so'ngra arra tishlaridan xavo yordamida ajratilishiga va kondensorgacha olib borilib, u yerda xavodan ajratishga asoslangan.

Linterlarning asosiy ko'rsatgichlari, chigitda ajratilgan momiq miqdori va chigit bo'yicha ish unumdorligi hisoblanadi.

Tanlangan momiq ajratish texnologiyasi va kerakli tipdagi momiq ajratish zaruriyatiga qarab, har qaysi linterlash pog'onasida kerakli linterlash miqdori tanlanadi va uni hisobga olib linterlarning ish unumdorligi sozlanadi.

Foydalanilayotgan arralarning diametri va ularning ishlash muddati linterlarning ish unumdorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Arra diametri kichiklashishi bilan momiq chiqarish miqdori o'zgarmagan xolda mashinaning chigit bo'yicha ish unumdorligi pasayadi.

Arraning ishlash muddatiga qarab linterlarning chigit o'tkazish qobiliyati P momiq chiqarish miqdori o'zgarmagan xolda quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$P=P_H-Kt,$$

Bu yerda, P_H - linterlarning chigit bo'yicha dastlabki ish unumdorligi 2300 va 2000 kg/h bo'lgani xolda ishlaganda birinchi va ikkinchi momiq ajratish miqdori 2,5 va 3,0 foizga teng;

K- proporsionallik koeffitsienti bo'lib, u 18,75 ga teng;

t- arralarning ishlash vaqti (1 soatdan 48 soatgacha).

5LP va qismlari modernizatsiyalangan PMP-160M linterlari bir xil ishlab chiqarish tavsifiga ega bo'lib, ular bir xil ishchi kamerasi bilan ta'minlangan. Linterlarning asosiy tashkil etuvchi qismlari ta'minlagich, korpus, ishchi kamera, arrali silindrva linterlangan chigit uchun tarnovlardan iborat.

Linterning ta'minlagichi ikki quyma yondorlardan, yopqich, ta'minlash barabani, chigit oqimini tekislovchibarabani, g'alvir, iflosliklar shneki, chigit tarnovi va kegaylardan iborat.

Linter korpusi, pastki qismi tortkichlar bilan qotirilgan yondorlardan, havo kamerasi, katta va kichik tarnovlardan, yondorlar va elektr dvigatel tumbasini o'rnatishga mo'ljallangan ramadan iborat.


Linter ishchi kamerasi kolsniklar tagiga to'sin o'rnatish uchun mo'ljallangan yondorlardan, ish unumdorligini bir me'yorlarda ushlab turuvchi zichlik klapani, yondorlarni o'rnatishga va kamera profilini tashkil etishga mo'ljallangan kegaylar, ishchi kamera profilini tashkil etuvchi uni ochganda kolosniklarni tozalash imkonini beruvchi fartukdan, linterlash jarayonida chigitni faol aralashtirib turuvchi aralashtirgichdan, linterlangan chigit tukdorligini sozlashga mo'ljallangan taroq va kolosniklardan iborat.

Arrali silindr valga kiygizilgan 160 ta arra va 159 ta arralar orasidagi qistirmalardan iborat. Arralarni yig'ish oson bo'lishi uchun valning o'rta qismiga qo'zg'almas qistirma presslab o'rnatilgan. Arralar orasidagi qistirmalar ikki tomonidan maxsus shaybalar orqali ikki gayka bilan qotiriladi. Havo kamerasi ikkita yondordan, ustki va ostki qoplamalardan, quvur, havo chiqish tirqishi va arrali silindrga nisbatan holatini sozlash mexanizmiga ega bo'lgan o'lik ajratgichidan iborat. Havo chiqish tirqishining kengligi, kamera yondorlariga o'rnatilgan ikkibolt yordamida sozlanadi. Xavo kamerasi linter yondorining tayanch sirtlariga, kameraga kesishgan arrali silindrlar o'rnatilgan xolatda arrali silindrga nisbatan xolatni sozlash imkonini beruvchi o'ng va chap boshmoqlar yordamida o'rnatilgan.

REFERENCES

1. Ходжиев, М. Т., & Рахимов, А. Х. (2023). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЗАКОНА ДВИЖЕНИЯ ХЛОПКОВОГО КУЛОСА ВДОЛЬ ОСИ СЕПАРАТОРА. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 644-647.
2. Yangiboyev, I., & Qaldibayev, R. (2024). 5LP LINTER SAW CYLINDER. *Modern Science and Research*, 3(1), 1217-1221.
3. Abbazov, I., Khodjiev, M., Salimov, A., & Egamberdiyev, F. (2023, March). Investigation of air velocity in expanding and contracting pipes for the transport of fibrous materials. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1142, No. 1, p. 012101). IOP Publishing.
4. Аббазов, Б. Т. У., & Кушимов, А. А. (2024). ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОЧИСТКИ ХЛОПКА ПОТОКА МЕЖДУ КОЛОССИНОМ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 23, 62-72.
5. Шодиев, Д. Т., Давлатов, Р. М., & Бердикул, И. (2022). ВОДОРАСТВОРИМЫЕ КОМПОЗИЦИИ НА ОСНОВЕ ПОЛИМЕРНЫХ СОЕДИНЕНИЙ ДЛЯ

- МОДИФИКАЦИИ ХЛОПКОВЫХ ВОЛОКОН. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(9), 133-138.
6. Sharipova, N. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING DESIGN SKILLS IN STUDENTS. *Modern Science and Research*, 2(12), 578-583.
7. Панжиев, О. Э., Исаева, Р. М., & Исмаилова, Л. (2023). ПОВЕРХНОСТНАЯ МОДИФИКАЦИЯ ВОЛОКНА КАК АСПЕКТ КОМФОРТА СВОЙСТВА ТКАНИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(3), 43-48.
8. Yangiboyev, I., Kasimov, A., Shodiyev, D., & Panjiyev, O. (2024). IMPACT OF FIBER WASTE ON THE ECOLOGY. *Modern Science and Research*, 3(2).
9. Sharipova, N., Sherqulova, N., Isayeva, R., Islamova, R., & Abdukadirova, M. (2024). RESEARCH OF THE PROCESS OF ENRICHMENT OF NATURAL SILK FIBER AND NITROINE FIBERS MATERIALS. *Modern Science and Research*, 3(2).



MODERN SCIENCE
& RESEARCH